

BUYUK IPAK YO'LI HAQIDA AYRIM MA'LUMOTLAR

Hasanboyev To'raqul Foziljon o'g'li

Jizzax davlat pedagogika universiteti

Tarix fakulteti o'qituvchisi

Turdiqulova Maftuna Laziz qizi

Jizzax davlat pedagogika universiteti

Tarix fakulteti talabasi

Annostatsiya: *Ushbu maqolada jahondagi ko'plab davlatlarning tarixida chuqur iz qoldirgan Buyuk Ipak yo'lining paydo bo'lishi, tarmoqlari va uning ahamiyatli jihatlari tarixi haqida ma'lumotlar keltirilgan. Mavjud manba va adabiyotlar ma'lumotlari tahlili asosida ushbu yo'lning o'zbek davlatchiligi tarixidagi tutgan o'rni atroflicha yoritib berildi.*

Kalit so'zlar: *savdo yo'llari, Buyuk Ipak yo'li, Xitoy malikasi, kumush yo'l, Amir Temur va temuriylar davri, lojuvard yo'li, Chjan Syan, U-Di, Ferdinand fon Rixtgofen, Buyuk geografik kashfiyotlar.*

Kishilik tarixidan ma'lumki, savdo-sotiq insoniyatning hayotida muhim rol o'ynagan sohalardan biri hisoblangan. Savdo-sotiq davlatning iqtisodiy hayotini yaxshilagan holda aholinining farovon yashash darajasini yaxshilagan. Har bir davrda turli mamlakat hukmdorlari o'z davlati hududidan o'tgan savdo yo'llarini tinchligini ta'minlashga intilgan. Bunday savdo karvon yo'llarining mashhurlaridan biri va asosiysi Buyuk Ipak yo'lidir. Tarixdan ma'lumki, Buyuk Ipak yo'li paydo bo'lishidan oldin ham Sharq va G'arb davlatlari orasida savdo aloqa yo'llari bo'lgan. Oltin yo'li, Nefrit yo'li, Sahro yo'li, Lojuvard yo'li shular jumlasidandir.

Lojuvard yo'li tarixiga to'xtaladigan bo'lsak, bu yo'l bronza davrida paydo bo'lgan. Uning bir tarmog'i Badaxshon, Baqtriya va Marg'iyona hududlarini Xorazm, Sug'd, Markaziy Qozog'iston va Ural bilan bog'lagan. Bu yo'l Pomir tog'laridan boshlanib, Eron, Old Osiyo, Misr orqali o'tgan. Badaxshon

lojuvardining Hind daryo, Mesopotamiya va Misrdan topilishi bu qimmatbaho toshning Qadimgi Sharqda nihoyatda qadrlanganligidan dalolat beradi [www.sayyoh.com. internet sayti].

Buyuk Ipak yo'li Sharq va G'arb davlatlariga iqtisodiy tomondan tashqari, turli madaniyatlar almashinuviga, ma'naviy dunyoqarashning o'sishiga imkoniyat yaratadi. Buyuk Ipak yo'li jahonning ko'plab davlatlari tarixida sezilarli iz qoldirgan. Buyuk Ipak yo'li atamasi ushbu yo'lda tashilgan mahsulot ipak bilan bog'liq bo'lgan.

Xitoyda ipak tolasining paydo bo'lishi haqida juda ko'plab rivoyatlar yaratilgan. Rivoyatlarning birida aytilishicha, miloddan avvalgi 2698-yilda yana bir rivoyatda esa miloddan avvalgi 2600-yilda Xitoy malikasi Si Ling Chi bog'da, tut daraxtlar soyasida choy ichib o'tirgan paytida, uning piyolasiga pilla tushib, tolalari yoyilib ketadi. Malika Si pilla iplarini yig'ishga urinsada, uning uddasidan chiqa olmaydi. Xitoy xalqi pilla kalabasini topib olishni Osmon xudosi Si Ling Chiga bog'laydi [www.cyberleninka.ru. internet sayti]. R. Rajabovning fikricha, imperator Syao Ven-di (er.avv.180-165-yillar) davrida Xitoyda xalq ahvoli yaxshilanadi. Uning davrida er.avv II asrda Sariq dengizidan boshlanib, O'rtayer dengizigacha borgan Buyuk Ipak yo'li shakllanadi [Rajabov R. 2009. 199 b.].

Buyuk Ipak yo'lida paydo bo'lishining tarixiga qaraydigan bo'lsak, Xan imperatori U-Di davlat chegaralariga xavf solayotgan xunnlarga qarshi ittifoqchi izlab o'z og'li Chjan Syanni elchilikka yuboradi. U xunlar qo'lga asirlikka tushib, 10 yil asirlikka tushadi. Tutqinlikdan qochishga musharraf bo'lib, Tyanshanning baland dovonlaridan o'tib, Issiqko'lga so'ngra Norin daryosi bo'ylab Farg'onaga keladi. Lekin ular faqatgina savdo ishlarida hamkorlik qilishlarini e'tirof etadi. Chjan Syan Farg'onadan faqat otlarni emas, balki parvarish qilish uchun asqotadigan sulini ham olib ketadi [Rajabov R. 2009. 199-200 b.]. Shu tariqa Chjan Syanning bosib o'tgan yo'li tarixda muhim savdo yo'li sifatida qoladi.

Buyuk Ipak yo'lida faqat ipak savdosi bilan shug'ullanilmagan. Baqtriyadan tuyalar, Badaxshondan la'l, Yaponiyadan gurunch, Hindistondan ip gazlamalar, ziravor va dorivor mahsulotlar, mushk-anbar, Farg'onadan zotli otlar savdosi

qizg'in olib borilgan.

Buyuk Ipak yo'lining shuhrati o'rta asrlarda ayniqsa, XIV asrning ikkinchi yarmi XV asrda ya'ni Amir Temur va Temuriylar davrida ortadi. Amir Temir oqil va tadbirkor hukmdor bo'lgani uchun davlatning rivojlanishida savdoning nechog'lik ahamiyatli ekanligini tushunadi. Uning davrida Buyuk Ipak yo'lida yangidan tarmoqlar ochilishi boshlanadi, davlat nazorat xizmati va maxsus bojxonalar tashkil etiladi. Buyuk ipak yo'lida haqida Amir Temur o'z tuzuklarida shunday degan: “Dunyoning yarmini oldim, saltanatimning u chetidan bu chetiga biror bolakay boshida bir lagan tillo ko'tarib o'tadigan bo'lsa, biror donasiga ham zarar yetmaydigan tartib-intizom yaratdim”[www.wikipedia.uz. internet sayti]. Bundan shunday xulosa olishimiz mumkinki, savdo yo'llari yaxshi qo'riqlangan. Samarqand dunyo savdogarlarining markaziga aylangan.

Amir Temur vafotidan so'ng avlodlari ham Buyuk Ipak yo'lini rivojlantirish maqsadida jiddiy xarakterda harakat qilishgan. Masalan 1388-1500 yillar davomida Toshkent, Samarqand, Xuroson, Sheroz, Xiro, Isfahon kabi shaharlardan elchi guruhlari Xitoyga borgan. Ularning ko'pchiligi 8-10 kishidan iborat bo'lgan. Savdogarlar Xitoyga ot, tuya, eshshak kabi chorva mollari, qimmatbaho toshlar va ulardan yasalgan buyumlar, dorivor va har xil mahalliy xunarmandchilik mahsulotlari olib borishgan. Xitoydan esa, asosan, ipak mato, chinni idishlar, choy, ravoch olib kelingan[Xo'jayev A. 2007. 203 b.]. Buyuk Ipak yo'li to'g'risidagi ma'lumotlar I-III asrga taaluqli Xitoy manbalarida uchraydi. Antik davr manbalarida ilk ma'lumotlar Psevdoarrianning “Eritrey dengizining quyilishi” nomli asarida va Ptolomeyning “Geografiyadan qo'llanma” asarlarida keltiriladi.

Buyuk Ipak yo'li haqida o'zbekistonlik olimlar tomonidan ham ko'plab asarlar yaratiladi.[Mamarahimova B. 2010. 7-8 b.] Masalan: A. Kabirovning yozishicha, mil.avv VI asrdan milodiy V asrgacha bo'lgan davrda savdo ham muttasil rivojlanib borgan. Mazkur podsholiklar, ayniqsa, Kushon saltanati davrida Buyuk Ipak yo'lidan unumli foydalanishgan[Kabirov A. 2016. 287 b.].

O'z navbatida “Ipak yo'li” atamasiga to'xtalsak, bu atama yaqin davrlarda vujudga kelgan. 1877 yilda nemis geografi Ferdinand fon Rixtgofer “Xitoy”

asarida birinchi bo'lib, savdo yo'li xaritasini tuzib chiqib, unda shunday nom beradi. Jahondagi ko'plab davlatlarning tarixida sezilarli iz qoldirgan Buyuk Ipak yo'lining ahamiyati XV asr oxiri XVI asr boshlaridan tushishni boshlaydi. Shu davrdan "Buyuk geografik kashfiyotlar" boshlanadi [www.wikipedia.uz. internet sayti]. Shundan so'ng, asosiy savdo yo'llari dengizga ko'chadi. Chunki tuya ortilgan savdo karvonlaridan ko'ra, yelkanli kemalarda yuk tashish arzon va ancha bexatar edi.

Xulosa qiladigan bo'lsak, har bir davrning o'z kashfiyoti, yangiligi bo'lganidek, qadim va o'rta asrlarning ham eng mashhur kashfiyotlardan biri bu, albatta Buyuk Ipak yo'lining yuzaga kelishi va shakllanishi hisoblanadi. Qadim va o'rta asrlarda faoliyat ko'rsatgan ko'plab davlatlarning siyosiy, iqtisodiy va madaniy jihatdan rivojlanishi uchun katta ta'sir qilgan Buyuk Ipak yo'li qariyb ikki ming yil davomida insoniyat hayotida faoliyatda bo'lgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Kabirov A. Qadimgi Sharq tarixi. Toshkent. 2016.
2. Mamarahimova B. Buyuk ipak yo'li sivilizatsiyalararo muloqot yo'li. Toshkent. 2010.
3. Rajabov R. Qadimgi dunyo tarixi. Toshkent. 2009.
4. Xo'jayev A. Buyuk ipak yo'li: munosabatlar va taqdirilar. Toshkent. 2007.
5. www.wikipedia.uz. internet sayti
6. www.sayyoh.com. internet sayti
7. www.cyberleninka.ru. internet sayti